

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“MAHBUB UL-QULUB”DA ISHQ TALQINI

Sarvinoz Jamolova

O’zMU 2-bosqich talabasi

jamolovasarvinoz13@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ulug’ shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari misoldida ishq mavzusi tahvil qilingan. Xususan, oshiq obrazi talqini orqali buyuk adibning o’ziga xos ma’naviy olami ochib berilgan.

Tayanch so’zlar: ishq, avom, xavoss, siddiq, mazhar.

Аннотация: В данной статье тема любви анализируется на примере произведения великого поэта Алишера Навои «Махбубуль-кулуб». В частности, интерпретация образа влюбленного раскрывает неповторимый духовный мир лирического героя.

Ключевые слова: любовь, авом (имеет знание общество), хавосс (желаемые люди), сиддик (праведные люди), проевление.

Annotation: This article analyzes the theme of love in the “Mahbubul-qulub” of the poet Alisher Navoi. In particular, the interpretation of the image of the lover reveals the unique spiritual world of the lyrical hero.

Keywords: love, avom (society), khavoss (special people), siddik (righteous people), mazkhar (manifestation).

Ma’lumki, ulug’ mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida komil insonni tarbiyalash yo‘lidagi mashaqqatlar ham bayon qilingan. Ayniqsa, “Ishq zikrida” bobida pok sevgining buyuk qudrati qalamga olinadi:

“Ishq axtaredur duraxshanda, bashariyat ko‘zi nur va safosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zeb va bahosi andin. Mehredur tole’, mahzun xotirlar xoristoni andin gulshan va badredur lome’, tiyra kungullar shabistoni andin ravshan.” [1, 35] Darhaqiqat, ishq – kishilar husn-u jamolining yog’dusi, ko‘zida nur bo‘lib porlaguvchi yoniq yulduzdir. Mahzun xotiralarga to‘la qalbni yorishtirguvchi mehr, dardli ko‘ngillar shomini oydinlashtirguvchi to‘lin oydir. Tasavvufda ishq eng ulug’ maqomdir. Oshiqda shunday holat yuz beradiki, u o‘zidan begona, zamon-u makondan ozod mahbub firoqida kuyadi, yonadi, unga yetishishga intiladi. Ya’ni haqiqiy ishq tuyg’usi qalbga tushgan “karomat nuri” bilan anglab idrok etiladi. Ishq o‘z mohiyatiga ko‘ra, shunday ezgu va matlub narsadirki, inson undan boshqa yoqimliroq, ulug’vorroq narsaga erishishi mumkin emas.

Asarda ishqning 3 toifasi keltirilib, batafsil ta’riflangan. Bular: avom ishqqi, xavoss ishqqi, siddiqlar ishqqi.

1. Avom ishqqi: “Avom ishqidurkim, avom un-nos orasida bu mashhur va shoe’durkim, derlar: «Falon falong‘a oshiq bo‘lubtur». Va bunav’ kishi har nav’ kishig‘a bo‘lsa bo‘lur, shag‘ab va izardorlaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

sunnatdur va muboh. Va pastroq martabasida parishonliq va mushavvashliqlar va besomonliq va noxushliqlareki, zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab” [1, 36]. “Avom” deganda, iloh qudratini qalban his etolmagan, borliqqa zohiran munosabatda bo‘lguvchilar nazarda tutilgan. Avomga xos ishq faqatgina jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanuvchi bog’liqlik, xolos. Uning oliv martabasi – sha’riy nikoh. Quyi darajasida esa ko‘ngilsizlik, mojaro, gina, tashvish, sharmandaliklar. Ko‘rinadiki, bu haqda so‘zlash odobsizlik, bayon qilish hayosizlikdir.

2. Xavoss (xoslar) ishqqi. “Xavoss ishqidurkim, xavoss ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg’olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq” [1, 38]. Navoiy fikriga ko‘ra, bu xos ishqqa mansub kishilar alohida xislatlar egasidir. Ular ko‘nglini nafsoniy istak, dunyoviy hirs-u havas g’uboridan forig’ etgan solih kimsalar. Sof niyat ila pok ko‘zlari bilan pok yuzga nazar soladilar va sof ko‘ngil u pok yuzning zavqi-ishtiyoqidan beqaror bo‘lib, bexudlikka yo‘liqadilar. Bu pok yuz vositasi bilan chin oshiq haqiqiy mahbub – Tangrining jamolidan bahra olishga muyassar bo‘ladi. Navoiy poklik, to‘g’rilikka xayrli amallarning inson ruhidagi tasviri o‘laroq yondashadi. Buyuk adib yaratgan qahramonlar tabiatida ham ana shu soflik mujassam. Oshiq yor qiyofasida (ko‘z, qosh, xol, lab, bel, soch, qadamlaridan qo‘l harakatlarigacha) Yaratganga olib boruvchi ma’rifatni ko‘ra biladi.

Asarda Majnun va Layli orasidagi xat almashinuv jarayoni kichik hikoyat tarzida keltirilgan. Unga ko‘ra, yorning bir og’iz shirin so‘zi bemor tananing davo topishiga sababchi bo‘ldi. (“Har kimki ani takror etar erdi, ul nafasdin bemor tanig‘a ruh yetarerdi. Uldamkim, ishi hirz va duodin o‘tdi, ma’shuq nomasi hirz va duo yerin tutti... Ishq so‘zidin marazi sihhat topti va ul so‘z takroridin-badani quvvat”). Navoiyning e’tiroficha, ma’nosida ishq harorati bo‘lmagan so‘z jonsiz badanga teng:

So ‘zkima ’nosidaishqo ‘tinishonibo ‘lmag’ay,

Birtaharruksizbadanonglaki, jonibo ‘lmag’ay. [1, 38]

Oshiq qalbning umr mazmuni, tiriklik matlab-u maqsadi, shubhasiz, ana shu – ishqdir. U qahramonning o‘zi, o‘zligini, borlig’ini yolqinlantirib turuvchi hayot quyoshidir.

3. Siddiqlar ishqqi: “Siddiqlar ishqidurkim, alar xaqning tajalliyoti jamolig‘a mazohir vositasidin ayru vola va mag‘lubdurlar. Va ul mushohada bexudlig‘ida alardinshuur, alardin maslub. Shu hudlari istig‘roqqa yetgan za ul istig‘roqdin istihloq maqomin hosil etgan. Agar havodis yeli sipehr gulshani avroqin uchursa, alarg‘a andin xabar yo‘q va anjum gulbarglarin har sorisovursa alarg‘a andin asar yo‘q...” [1,37].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Siddiq – mumtoz adabiyotda so‘zi va ishi, bilim-u ahvoli, ravish-u niyatları, tabiatı va axloqi bir bo‘lgan kishi. Siddiqlar bevosita Haq jamoliga maftun va taslim bo‘lganlardir. Ana shu istak, kuchli orzu ishtiyoyqiga o‘zlarini ishq ummoniga g’arb qilgan, hatto bu yo‘lda jon taslim qilish darajasiga yetganlardir.

Umuman, “Mahbubul-qulub”da yoritilgan chin insoniy fazilatlar, jumladan ishq mavzusini atroflicha o’rganish ulug’ shoir Navoiy axloqiy qiyofasining yorqin jihatlari, qolaversa, mumtoz adabiyotning umrboqiy tamoyillari sirini yanada chuqurroq anglash imkonini berishi yuqoridagi mulohazalarimizdan ham ayonlashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub//Muammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – 315 b.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520 b.
3. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiya asarlari lug’ati. – Toshkent: G’ofur G’ulom, 1972. – 784 b.
4. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. (Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar). – Toshkent: Tamaddun, 2012. – 316 b.
5. Asadov M. O‘zbek adabiyoti tarixi va yangi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2023. – 284 b.